Ertaga SAYLOV

Bozor-o‘char, to‘y-ma’rakaga KEYIN,

AVVAL SAYLOVGA BORING!



Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 26-oktabr, shanba,
124 (24.001)-son

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 128-modda.**

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari!

Qadrli ofitser va generallar, serjant va safdorlar!

Muhtaram faxriylar!

Siz, azizlarni bugungi qutlug‘ kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarning xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi katta xizmatlaringizni yana bir bor minnatdorlik bilan e’tirof etamiz.

Hozirgi kunda “Barcha islohot va o‘zgarishlar – inson qadrini ulug‘lash uchun” degan ezgu tamoyil asosida butun yurtimizda fuqarolarimiz uchun munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish, aholining turmush farovonligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni el-yurt manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan xalqchil va professional tizimga aylantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarimiz, hech shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi yillarda barcha mahallalarda xavfsiz, tinch va osoyishta muhit yaratish, hududlarda ilg‘or tajriba va amaliyotlarni joriy etish bo‘yicha muhim natijalar qo‘lga kiritilayotganini ta’kidlash lozim.

Xususan, Xiva tumanining Istiqlol mahallasi namuna sifatida belgilanib, shu asosda 314 ta kriminogen vaziyati og‘ir mahallada raqamlashtirish jarayoni to‘liq amalga oshirildi. Yonma-yon joylashgan, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni kichik hududlarga ajratgan holda, ularda yangicha ish uslublari orqali jamoat tartibini saqlash bo‘yicha Namangan shahar tajribasi yaratildi.

Profilaktika, patrul-post va probatsiya xizmatlari inspektorlarining faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish, xodimlarning bilim darajasini oshirish orqali hududlarda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar o‘tkazilmoqda. Xususan, Buxoro viloyatida mahallalar jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun kichik hajmdagi dronlardan foydalanish tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yildi.

Eng muhimi, biz yosh avlodimizning sog‘lom hayoti va kelajagini ta’minlash uchun giyohvandlikning oldini olish, yoshlarda bunday vositalarga nisbatan kuchli immunitetni shakllantirish hamda ularning noqonuniy aylanmasiga, ayniqsa, internet tarmoqlari orqali tarqalishiga chek qo‘yishga qaratilgan milliy strategiyamizni qabul qildik va uni qat’iy ijro etishga kirishdik.

Ana shunday islohotlar natijasida jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha yondashuvlar tubdan o‘zgardi. Huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanishi mumkin bo‘lgan fuqarolarni profilaktika inspektorlari vaqtida aniqlashlari hamda mavjud muammolar “mahalla yettiligi” tomonidan samarali hal etilishi uchun ijtimoiy profilaktika tizimi va uning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari yaratildi. Jinoyatchilikka oid tendensiyalarni kompleks ilmiy yondashuvlar asosida aniqlash, tizimlashtirish va salbiy omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tizimida O‘zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti ish boshladi.

Qayd etish lozimki, respublikamizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik instituti tomonidan o‘tgan yili e’lon qilingan reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston jahonning 121 ta mamlakati orasida eng xavfsiz davlat deb tan olindi. Bunday yutuq bizga mamnuniyat bag‘ishlash bilan birga, katta mas’uliyat ham yuklaydi.

Aziz do‘stlar!

Tizim xodimlarining kasb mahoratini oshirish, ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasi ham doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. Bu jarayonda, avvalo, olis va chekka hududlarda joylashgan hamda kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan tuman va mahallalarda xizmat qilayotgan xodimlar mehnatiga alohida ahamiyat berilib, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitlari yaratilmoqda.

Albatta, bugungi shiddatli taraqqiyot asrida ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va ilm-fan yutuqlariga tayangan holda tashkil etish – mamlakatimizda huquq-tartibotni yanada mustahkamlashning muhim omili ekanini sizlar yaxshi tushunasiz.

Shuning uchun tizimda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohot va yangilanishlarni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz. Jumladan, yangi turdagi jinoyatlar hamda axborot vositalari yordamida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ta’sirchan mexanizmlarni qo‘llash, kriminogen vaziyat bo‘yicha “qizil” toifada bo‘lib kelayotgan mahallalarda ilmiy yondashuvlar asosida jinoyatchilikni jilovlash yuzasidan manzilli ish olib borishimiz, tergov sifatini oshirish orqali aholi o‘rtasida bu sohada adolatga bo‘lgan qat’iy ishonchni shakllantirishimiz lozim.

Muxtasar aytganda, ichki ishlar tizimidagi o‘zgarishlarning amaliy natijasini xalqimiz o‘z kundalik hayotida doimo sezishi, his etishi shart.

Hurmatli soha xodimlari!

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga o‘z xizmat burchingiz va muqaddas qasamyodingizga doimo sodiq qolib, Vatanimiz va xalqimizga fidokorona xizmat qilib kelayotganingiz uchun chin dildan tashakkur bildiraman.

Hech shubhasiz, sizlarning mashaqqatli va sharafli mehnatingizni munosib rag‘batlantirish kelgusida ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markazida bo‘ladi.

Ushbu qutlug‘ ayyomda el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur soha xodimlarining xotirasini hurmat va ehtirom bilan yod etib, ularning oilalari va farzandlariga bayram tabrigimiz va ezgu tilaklarimizni yo‘llaymiz.

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilalaringizga baxt-saodat, tinchlik va fayz-u baraka, mas’uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



Sharafli kasb egalari xizmati e’tirof etildi

Viloyat hokimi E.Turdimov viloyat ichki ishlar boshqarmasida bo‘lib, soha xodimlarini kasb bayrami bilan tabrikladi.

– Viloyatimizda tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda bu illatlarga qarshi kurashishda xizmatlaringiz beqiyos, – dedi E.Turdimov. – Tunu kun sergak turib, o‘z xizmat burchingizni sharaf bilan bajarayotganingiz tufayli aholi xotirjam yashamoqda, mehnat qilmoqda. Bundan tashqari, bugun ichki ishlar idoralari rahbarlari viloyatimizda uchinchi sektorga mas’ul bo‘lib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishga ham munosib hissa qo‘shib kelmoqda.


Viloyat hokimi Prezidentimizning kuni kecha qabul qilingan farmoniga ko‘ra, ikki nafar samarqandlik ichki ishlar organi xodimining davlat mukofoti bilan taqdirlangani viloyatdagi barcha ichki ishlar organlari rahbar va xodimlari xizmatlari e’tirofi ekanligini ta’kidladi.

Uchrashuvda sohaning bir guruh fidoyi xodimlariga viloyat hokimligining tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Saylov – 2024

Saylovga tayyormiz

27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo‘lib o‘tadi. Ayni paytda viloyatimizda yirik siyosiy tadbirga hozirlik ishlari yakunlanib, 1130 ta saylov uchastkasi shay holatga keltirildi. Ovoz berish soat 8:00 dan 20:00 ga qadar o‘tkaziladi.



Samarqand shahri Mingtut mahallasida joylashgan 89-saylov uchastkasi qonunchilikda belgilangan talablar asosida jihozlandi. Uchastka saylov komissiyasi uchun ajratilgan xonalar zarur texnika vositalari - kompyuter jamlanmalari, telefon, nusxa ko‘chirish apparati va tegishli adabiyotlar, saylov qonunchiligiga oid ma’lumotlar, saylovchilar huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi targ‘ibot vositalari bilan ta’minlandi. Kirish yo‘laklariga maxsus panduslar o‘rnatildi. Ovoz berish kabinalari, statsionar va ko‘chma saylov qutilari shay holatga keltirildi.

Saylov uchastkasida jami 1039 nafar fuqaro ovoz berishi ko‘zda tutilgan. Shundan birinchi marta saylovda ishtirok etayotganlar 13 nafarni, imkoniyati cheklangan saylovchilar 7 nafarni tashkil etadi. 107 nafar saylovchi muddatidan oldin ovoz berdi.

Gavhar ABDUVOHIDOVA,
Samarqand shahridagi 89-uchastka saylov komissiyasi kotibi.

Bir jumlada

Kattaqo‘rg‘on tumani *hududidan o‘tuvchi 4R-46 "Samarqand-Kattaqo‘rg‘on" avtomobil yo‘lining 66-kilometri - "Amir Temur-Qozoqovul" ko‘chalari chorrahasiga svetofor o‘rnatildi.*

Narpay tumani *hokimligi tomonidan tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasalliklar bo‘limiga maxsus bino, birlashma hududida aholi uchun avtoturargoh qurish uchun qariyb 250 million so‘m mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi.*

Nurobodlik *Alisher Samanov Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o‘tkazilgan dzyudo bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionatida bronza medalini qo‘lga kiritdi.*

Payariq tumani*dagi “Hazrat polvon Usmonov”, “Ko‘ktepa”, “Esonbek dalasi” fermer xo‘jaliklari tomonidan eng so‘nggi rusumdagi 4 ta “Bashiran” nomli zamonaviy paxta terish mashinasi olib kelindi.*

Joriy yil boshidan buyon ***Past Darg‘om tumani****dagi 266,1 kilometr ichki yo‘llar hashar yo‘li bilan shag‘allashtirildi.*

Qo‘shrabot tumani*ning Toz mahallasida yashovchi Mamirovlar oilasi “Yosh kitobxon oila” tanlovining viloyat bosqichida 1-o‘rinni egalladi.*

Samarqand tumani *Nurobod qishlog‘idagi suv inshooti ta’mirlanib, 150 ga yaqin xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.*

2019-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari (32 foiz) hamda Oliy Majlis Senatiga saylangan va tayinlangan senatorlarning 24 nafari (24 foiz) ni xotin-qizlar tashkil etgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga yangi saylangan deputatlarning 247 nafari (30 foiz), tuman va shahar Kengashlarida 1422 nafari (25 foiz) xotin-qizlardan iborat bo‘lgan.

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Parlament saylovlaridagi gender tenglik:

Milliy va xorijiy amaliyot

Statistika agentligining ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga xotin-qizlarning siyosiy partiyalardagi ulushi 48,1 foizni, siyosiy partiyalarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi 32,2 foizni tashkil etadi.

2023-yil 18-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 70-, 91-moddalariga kiritilgan tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq endilikda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, shuningdek, partiya ro‘yxati asosida siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro‘yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim. Shuningdek, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishda ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar umumiy sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak.

Joriy yil 20-sentabrda Markaziy saylov komissiyasining matbuot anjumanida Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlar orasida ayollar soni 391 nafar (44,7 foiz)ni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) Kengashlariga ko‘rsatilgan 28475 nafar nomzodlarning 42,5 foizini xotin-qizlar tashkil etganligi ma’lum qilindi.

Xorijiy mamlakatlarning gender tenglikka oid normalari tahlil qilinganda, ularda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish orqali siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga oid qonun hujjatlarini qabul qilishda ayollarning ishtirokini oshirishga hamda umume’tirof etilgan huquq va imkoniyatlarning tengligi prinsipini amaliyotga joriy etish kabi kafolatlarni kuzatish mumkin.

Jumladan, Ruandada majburiy kvotalar tufayli parlamentdagi ayollar eng yuqori ulushni tashkil etadi. Shvetsiyada partiyalarning nomzodlar ro‘yxatida kamida 40 foiz, Meksikada saylovga nomzodlarning kamida 50 foiz ayollar bo‘lishini talab qiluvchi kvotalar joriy etilgan. Hindistonda ham mahalliy kengashlar darajasida ayollar uchun kvotalar joriy etilgan bo‘lib, hozirda milliy parlament darajasida ham kvota joriy etish faol muhokama qilinmoqda.

Parlamentlararo ittifoq (IPU) tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlarga muvofiq, 2024-yil 1-yanvar holatiga butunjahon parlamentlarining 26,9 foiz a’zosini xotin-qizlar tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 0,4 foizga oshgan. Parlamentlarda xotin-qizlar tomonidan eng ko‘p egallangan o‘rinlar bo‘yicha yetakchi Kuba (55,7 foiz), Andorra (50 foiz), Birlashgan arab amirliklari (50 foiz), Ruanda (49,2 foiz), Avstraliya (47,3 foiz) hisoblanadi. Parlamentlarda kam son egallagan ayollar Braziliya (17,4 foiz), Nigeriya (3,8 foiz), Yaman (1,1 foiz)dadir.

Shuningdek, statistikada qayd etilishicha dunyo mamlakatlari parlamentlariga 64 nafar ayol rahbarlik qilmoqda. Bu o‘tgan yilga nisbatan rahbar xotin-qizlar 1,1 foizga oshganligini ko‘rsatadi. Jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a’zo davlatlar orasida Belarus, Rossiya, Turkmaniston va O‘zbekiston parlamentlari palatalariga ayollar rahbarlik qiladi.

Qonunchilik yoki partiya nizomi orqali parlamentlarda ayollar uchun belgilangan kvotalar qonun chiqaruvchi organlarda xotin-qizlarning vakilligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Bu ularning siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq salbiy qarashlarni o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Shohrux MAJIDOV,
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi katta eksperti.

Qizlarning oliy ta'limga intilishi orzuga emas, ehtiyojga aylandi

Ba'zi xorij davlatlaridagi bog'chalarda ishlaydigan xodimlar nafaqat oliy ma'lumotli, hatto pedagoglik sohasida ilmiy ish olib borayotganlari ham ko'p ekan. Ya'ni bolalar tarbiyasini ilk pallalaridanoq, albatta, oliy ma'lumotli xodimga ishonishadi.

Yurtimizda oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarni kamsitishga yo'l qo'yilmagan bo'lsa-da, oilalardagi ayrim vaziyatlar tufayli ko'pincha qizlarni oliy ta'limga jalb qilish oson bo'lmasdi. Masalan, ba'zi oilalarda qizlarning o'qishga qiziqishi kuchli, ammo ularni qo'shimcha darslarga berish, shartnoma to'lovi to'lash imkoniyati yo'qligi sababli ularning bu qiziqishlari shunchaki orzuligicha qolib ketardi. Bugun esa bunday muammoga barham berildi. Tumanimiz misolida olaylik, oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga kirish tanlovida qatnashish uchun ehtiyojmand oilalardagi 134 nafar xotin-qizga tavsiyanoma berildi.

Shuningdek, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy talim muassasalariga o'qishga qabul qilish imkoniyati tufayli bu yil 7 nafar xotin-qiz talaba bo'ldi. Bundan tashqari o'tgan o'quv yili uchun 11 nafar talaba qizning shartnoma to'lovlari to'lab berildi.

Misol uchun, Xo'jabachcha mahallasida istiqomat qiluvchi Feruza Ergasheva uch nafar farzandi bilan boquvchisini yo'qotib, bolalarini ulg'aytirish o'z zimmasiga qolib ketdi. Buning ustiga o'zi ikkinchi guruh nogironi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, hayot qiyinchiliklariga taslim bo'lmadi. Qizi o'qidi, izlandi va imtiyoz sabab Samarqand davlat tibbiyot universitetiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi.

Aytish kerakki, tumanimizdagi maktablarni bu yil 1357 nafar qizlar bitirib, ularning 328 nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi.



Qizlarning oliy ta'limga qiziqishi ortayotganida shu kabi imtiyoz va imkoniyatlar muhim omil bo'lmoqda.

Nasiba MAMADIYOROVA,
Bulung'ur tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i.

FAOLIYAT RAQAMLARDA

PROFILAKTIKA SAMARA BERYAPTI

Viloyat ichki ishlar boshqarmasidan olingan ma’lumotga ko‘ra, joriy yilning uchinchi choragi yakuni bo‘yicha viloyatda jami **4144** ta jinoyat, shundan **2581** ta oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyat sodir etilgan.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, joriy yil qayd etilgan oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar **2,9** foizga kamaygan. Jinoyat turlari bo‘yicha qotillik **9** ta (30 foiz), o‘g‘irlik **47** ta (10,7 foiz), talonchilik **3** ta (16,7 foiz), bezorilik **13** ta (16,5 foiz), yengil tan jarohati yetkazish **24** ta (11,5 foiz), yo‘l transport hodisasi **25** ta (3,3 foiz)ga kamayishiga erishilgan.

Viloyatdagi **1126** ta mahallaning **532** tasida (47,2 foiz) jinoyat sodir etilmagan. Jinoyatlar kamaygan va barqaror saqlangan mahallalar **462** tani (41 foiz) tashkil etmoqda.

Tezkor qidiruv tadbirlari natijasida noaniq sharoitlarda sodir etilgan jinoyatlarning **93,7** foizi (4144 tadan 3885 tasi) fosh etilib, qidiruvdagi shaxslarning **549** tasi ushlangan.

Press-tur

Narpayda sanitariya talablariga rioya qilmagan 61 ta ta’lim muassasasi mas’ullari jarimaga tortilgan

Narpay tumanida aholi salomatligini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish hamda sanitariya nazorati bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tomonidan OAV vakillari ishtirokida mazkur tumanga uyushtirilgan press-turda shu kabi savollarga javob izlandi.

- Tumanimizda 227 ming aholi yashaydi, - deydi tuman sanitariya-epidemiologik ocoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i Boltaboy Daminov. – Aholi o‘rtasida tarqalishi mumkin bo‘lgan epidemiya va yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida mahallabay ishlash tizimini yo‘lga qo‘yganmiz. Buning uchun tumandagi 57 ta mahallada mutaxassislarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Yil boshida aholining sanitariya epidemiologik xotirjamligini ta’minlash maqsadida bakteriologik va parazitologik laboratoriyalarga zamonaviy asbob-uskunalar sotib olindi. Shuningdek, laboratoriyalar talab darajasida faoliyat ko‘rsatishi uchun ozuqa muhitlari, zardoblar va reaktivlar, vaksinalar bilan ta’minlandi.



Sanitariya-epidemiologik ocoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi vrachi Oygul G‘afforovaning ta’kidlashicha, tuman hududida joriy yilning 9 oyi davomida 106 ta davlat ta’lim tashkilotlarida sanitariya nazorati o‘tkazilgan.

Bakteriologiya laboratoriyasiga 872 ta tahlil olingan. Shundan 56 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, 3 ta maktabdan olingan tahlil talabga javob bermasligi aniqlandi.

Ta’kidlanishicha, joriy yilning o‘tgan 9 oyida tumanda 112 holatda sanitariya xulosalari berilgan bo‘lsa, shundan 2 tasi sanitariya talablariga mos kelmagan. Ichimlik suv tarmog‘idan bakteriologik tekshiruvga olingan 489 ta suv namunalaridan 61 tasi davlat standartiga javob bermaganligi aniqlangan.

Press-tur davomida tuman sanitariya bo‘limi tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va mahallalarda mahallabay ishlash tizimi asosida amalga oshirilgan ishlar ko‘zdan kechirildi.

F.RO‘ZIBOYEV.

Vaqtincha saqlanayotgan g‘alla yomg‘irda qoldirildi(mi?)

Joriy yilda viloyatimiz g‘allakorlari 94,2 ming gektar yerdan 820 ming tonna hosil yig‘ishtirib oldi. 235 ming tonnadan ortiq g‘alla shartnoma asosida davlatga sotildi. Qolgani fermer xo‘jaliklar ixtiyorida va vaqtincha saqlash omborxonalariga joylashtirildi. Ammo bir necha kun oldin yoqqan yomg‘ir vaqtincha saqlash omborlariga joylashtirilgan g‘allaga zarar yetkazganligi haqida xabarlar tarqaldi. Bu qanchalik haqiqat?



Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda viloyatda 4 ta don korxonasi, 1 ta filiali, 2 ta don klasteri va ularga qarashli 13 ta don qabul qilish maskanlari mavjud. Ushbu don qabul qilish maskanlarining ochiq maydonlarida 153,3 ming tonna g‘alla qabul qilingan. Donning 129,8 ming tonnasi korxonalarning elevatori yoki yopiq omborlariga hamda birja savdolari orqali sotish uchun tashib ketilgan.

– 23-oktabr holatiga ko‘ra, Payariq, Chelak, Oqdaryo, Samarqand va Ishtixon tumanidagi don qabul qilish maskanlarining ochiq maydonlarida 23,4 ming tonna g‘alla qoldig‘i mavjud, - deydi "O‘zagroinspeksiya" viloyat boshqarmasi sho‘’ba boshlig‘i Rashid Sobirov. - 16,5 ming tonna g‘alla maxsus maydonlarda usti yopilgan holda saqlanmoqda. Jamg‘arma hisobidagi ochiq maydonlarda saqlanayotgan 6,9 ming tonna g‘alla don korxonalarining elevatorlari va yopiq omborlariga tashilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyunda “2023-yil hosilidan bug‘doy xarid qilish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, vaqtincha saqlash uchun qabul qilinadigan tovar bug‘doyni qabul qilish, saqlash va xaridorlarga yuklab jo‘natish xarajatlari tijorat vakili va don yetishtiruvchilar o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq jamg‘arma mablag‘lari hisobidan hamda ushbu bug‘doyni tashib keltirish uchun transport xarajatlari yetishtiruvchilar hisobidan amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, bug‘doy yetishtiruvchilarning xarajatlarini oshirib yubormaslik uchun vaqtincha saqlashda turgan 16,5 ming tonna g‘alla birja savdolari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu yerning o‘zidan sotiladi.

Ochiq maydonlardagi g‘allaning yopiq sig‘imlarga o‘z vaqtida kiritilishi yuzasidan Paxtachi, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon, Oqdaryo, Payariq va Samarqand tuman hokimlariga qonunbuzilish holatlarga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda choralar ko‘rish bo‘yicha taqdimnomalar kiritilgan.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

Prezident farmoniga ko‘ra

Keyingi yillarda yurtimizda pensiya ta’minotiga oid ko‘plab yangi hujjatlar qabul qilindi. Prezidentning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, “Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori shular jumlasidan. Xo‘sh, bu bizga nima berdi? Sohada qanday yangiliklar bo‘ldi? Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmasi shu’ba rahbari Abdurashid Rahimov sohadagi o‘zgarishlar va kutilayotgan yangiliklar haqida ma’lumot berdi.

Pensiya ta’minoti:

Qanday o‘zgarishlar bor, proaktiv degani nima?

Yuqoridagi qaror bilan joriy yildan boshlab fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo‘shimcha ravishda ularning xohishiga ko‘ra, Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish huquqi ham berilgan, - deydi A.Rahimov. - Davlat pensiyasi tayinlanganidan so‘ng ular shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki AT “Xalq banki”ning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-martdan fuqaro yoshga doir pensiya yoshiga to‘lganda, pensiyani alohida murojaat talab etmagan xolda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etilmoqda. Bunda masalan, erkak kishi 2025-yil 5-yanvarda 60 yoshga kirsa, undan ariza yoki boshqa hujjat talab qilinmaydi. Uning ish stajlari Yagona milliy mehnat dasturi orqali olinadi. Oylik ish xaqlari to‘g‘risidagi ma’lumot soliq inspeksiyasidan olinib, yoshga doir pensiya tayinlanadi. Agar fuqaro pensiya miqdoridan norozi bo‘lsa, uni rad etishi va pensiyaga keyinroq chiqishi mumkin. Yoki pensiya miqdori kam hisoblandi, desa elektron ma’lumoti bo‘lmagan boshqa ish stajlari yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin bo‘ladi.

Farmonning 4-bandida “Fuqarolarning pensiya ta’minotini yaxshilash va pensionerlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab pensionerga hisoblangan, lekin o‘z vaqtida olinmagan pensiyani to‘lash muddati 12 oydan 24 oyga uzaytirilsin”, deb belgilab qo‘yildi.

Misol uchun, fuqaro salomatligini tiklash maqsadida chet davlatga ketdi va pensiya pullarini olish uchun ishonchli vakilga ishonchnoma qoldirdi. Lekin u 2 yilu 10 oy O‘zbekistonga qaytib kelolmadi. Bu holatda ishonchli vakil faqat bir yil uning pensiya pullarini olishi mumkin edi. Sababi ishonchnoma muddati bir yil. Oqibatda uning pensiya puli to‘xtatib qo‘yilgan, umumiy hisobda 1 yilu 10 oylik pensiya puli olinmasdan qolgan.

Endi bu fuqaro ham o‘sha davr uchun to‘lanmay qolgan pensiya pullarini olishi mumkin. Muddat 24 oydan ortiq bo‘lmasa kifoya. Ilgari amalda bo‘lgan qoidaga ko‘ra, unga faqat 12 oylik pensiya puli to‘lab berilar edi.

Asqar BAROTOV yozib oldi.

"Ayollar daftari"ni tashkil etishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning moddiy qiyinchiliklarini bartaraf etishdan iborat. Garchi daftarga kiritilgan xotin-qizlar muammolari turlicha bo‘lsa-da, ularning asosi moddiylik bilan bog‘liq. Quyida Nurobod tumanida biz ko‘rgan manzillar garchi o‘zini tiklab olgan tadbirkor ayollar haqida bo‘lsa-da, ularning “Ayollar daftari” bilan bog‘liq joylari bor. Qanday deysizmi?



Amerikada mijozlari bor quroqchi

SOJIDA QUROQLARI NUROBODNING BRENDIGA AYLANISHI MUMKIN, AMMO...

Sojida Yo‘ldosheva tumanning Ittifoq mahallasidan, lekin tuman markazidan joy olib ishlaydi. Sababi, mijozlar bilan ishlash shuni taqozo etadi. Uning tikuvchiligi oddiy ko‘ylak yoki ko‘rpa-to‘shak tikishdan farq qiladi. Mijozlari ham faqat nurobodliklar emas, respublikamizning barcha viloyatlaridan uning mahsulotlariga xaridor bor. Hatto Rossiya, Amerikadan u tikkan mahsulotlarni so‘rovchilar topilyapti. Sojida bu ishni qanday yo‘lga qo‘ydi?

- Aslida 2004-yildan beri tikuvchilik qilaman, shu orqali ozmi-ko‘pmi, daromad topganman, - deydi Sojida Yo‘ldosheva. – 2022-yildan 5 million so‘mlik kredit olib, tikuv mashinkalari sotib oldim va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish boshladim. Bunday yo‘l tutishimga sabab bor. Bir necha yillar avval enam, ya’ni qaynonamning ko‘rpa-to‘shaklari orasida tikilishi boshqacharoq bo‘lgan quroq yostiqni ko‘rib qoldim. Ancha eskirib ketgan bo‘lishiga qaramay, o‘ziga xos, chiroyli tikilganligi bilinib turardi. Shunga o‘xshatib tikib ko‘rmoqchi bo‘ldim, qarasam, yaxshi chiqdi. Bu bizda kam uchraydigan quroq tarzda tikilgan yostiqlar edi. Shunday quroq usulida ko‘rpachalar tika boshladim, xaridorlar ko‘paydi. Keyinroq shunday beshik yopinchiqlari, chimildiq, dasturxon, umuman, xonadonga kerakli bo‘lgan yopinchiqlarni tikishni yo‘lga qo‘ydik. Ijtimoiy tarmoqlarda “Sojida quroqlari” nomi bilan kanal ochdim. Turli viloyatlardan quroq ko‘rpacha va boshqa buyumlarga buyurtma tusha boshladi. Bugun pochta xizmatlari yo‘lga qo‘yilgani uchun buyurtmalarni pochta orqali tarqatdik. Shuning uchun garchi o‘zimizning mahallamizdan joy ajratilgan bo‘lsa-da, buyurtmalarni o‘z vaqtida yetkazib berishda ortiqcha xarajatning oldini olish uchun tuman markaziga kelib ish boshladik. Agar kattaroq bino bo‘lganida yanayam ko‘proq ishchi olib, ishimizni kengaytirgan bo‘lardik. Chunki buyurtma ko‘p, tikuvchilarimiz esa kam.

Ushbu usuldagi quroq buyumlarni tikishni onlayn o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydim. Respublikamizning turli viloyatlaridan 15 ga yaqin xotin-qizga ma’lum mablag‘ evaziga onlayni kurslarimizni sotdik. Hozir Rossiya va boshqa xorij davlatlaridan ham mahsulotlarimizga qiziqish bildirishmoqda.

Tadbirkor tikkan mahsulotlarni ko‘zdan kechirar ekansiz, ularning o‘ziga xos naqsh va bezaklari e’tibor tortishi va ayni paytda zamonaviy ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Ammo ushbu tadbirkor korxonasini kengaytirsa, yana qanchadan-qancha qizlar hunarli, balki ishli bo‘larmidi. Yana ozgina turtki bo‘lsa, uning quroq buyumlari Nurobodning brendiga ham aylanishi mumkin.

MASHINKALAR BOR, ISH YO‘Q

Nurobodning chekka Jom qishlog‘idagi Qunduz momoni ko‘pchilik yaxshi taniydi. Onaxon qadim gilamchilik yo‘qolib ketmasin, deya halak. Necha yillardan beri gilamchilik bilan shug‘ullanib, shu atrofdagi ayollarning ham ish bilan band bo‘lishiga imkon berdi. Aslida bu hududlarda gilam to‘qimagan, sepiga kashta tikmagan qiz yo‘q. Ammo zamonaviy ro‘zg‘or buyumlari bozoru do‘konlarni egallagach, ular tobora xaridorgir bo‘lgani sari xonadonlarimizga jadallik bilan kirib kelmoqda. Bu jarayon esa uzoq vaqt va qunt talab etiladigan gilam to‘qishday qadimiy hunarga ehtiyoj qoldirmasligi tabiiy. Qunduz momo esa necha yillarki, shu hunarning qishlog‘i va yon atrofidagi qishloqlardan yo‘qolib ketmasligini istaydi. Tegirmonboshi mahallasida yashovchi Qunduz Xudoyorova o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab qishloq qizlariga Samarqand shahridagi fabrikadan xomashyo keltirib, gilam to‘qittirdi. O‘ziga foyda qolmasa-da, tayyor mahsulotni yana fabrikaga eltib, shu bilan ko‘pchilikning tiliga tushdi. Uyiga yaqin joyda gilam to‘qish xonasi tashkil etdi. Ammo turli ko‘rinish va hajmdagi, tabiiy jundan to‘qilgan gilam, olachalarning xaridori kun sayin kamayib ketdi. Bugun, hatto qizlar ham sepiga bunday gilamdan qilmayapti. Darvoqe, Qunduz onaning o‘n nafar qizi bor. Ularning barchasi hunarmand: birovi tikish qilsa, birovi quroq tikadi, kryuchok bilan to‘qiydiganlari ham bugun ro‘zg‘origa baraka kiritmoqda. Ammo barchasi gilam to‘qiydi.

- Gilamchilikni rivojlantirish uchun “Durjamol” xususiy korxonasini tashkil etgandik, - deydi Qunduz Xudoyorova. – Gilamning xaridorlari doim ham bo‘lmaydi, shuning uchun xotin-qizlar ishli bo‘lsin, deb shu yerning o‘zida tikuvchilik sexi tashkil etdik. O‘nga yaqin tikuv mashinkalarini subsidiya asosida oldik. O‘tgan yili biz bilan shartnoma qilgan korxona yaxshi ishladi, kasanachilik asosida qizlar buyurtmani bajarib berishdi. Lekin bu yil bizga ish bergan korxonaning ishlari to‘xtab qoldi, shuning uchun bizning ham ishlarimiz yurishmayroq turibdi.

Afsuski, haqiqatan ham subsidiyaga olingan o‘nlab tikuv mashinkalari chang bosib yotibdi. Ularni ishlatadigan odam bor, ammo ish yo‘q. Izlanyapmiz, kutyapmiz, deydi umid bilan Qunduz ona.

Aslida, qishloq hududlarida xotin-qizlarni doimiy ish bilan band qilish oson masala emas. “Durjamol” korxonasida bunga imkon bor-u, korxonaga kerakli ishning o‘zi yo‘q-da.

BIR MARTALIK YORDAM BILAN MUAMMO HAL BO‘LMAYDI

Bu yil Nurobod tumanida yashovchi 80 mingga yaqin xotin-qizlarning 3392 nafari “Ayollar daftari”ga kiritildi. Ular orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz 1964 nafar xotin-qizlarning 1669 nafarining turli yo‘nalishlarda bandligi ta’minlandi.

Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand 74 nafar xotin-qizga imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, "Ayollar daftari"ning yana bir toifasi, ya’ni boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand 541 nafar xotin-qizning 382 nafariga bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravari miqdorida, ya’ni 1 million 360 ming so‘mdan mablag‘ tarqatildi. Shuningdek, uy-joyi ta’mirga muhtoj bo‘lgan 21 nafar ayolning barchasiga qurilish mollari ajratildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, I hamda II guruh nogironligi bo‘lgan, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj bo‘lgan ehtiyojmand 395 nafar xotin-qizning barchasiga bir martalik moddiy yordam pullari berildi. Uy-joyga muhtoj bo‘lgan 9 nafar xotin-qizlarning 5 nafariga amaliy yordamlar ko‘rsatildi.

Shuningdek, qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandlari bor 409 nafar xotin-qizlarning 249 nafariga bir martalik moddiy yordam puli ajratildi.

Yangi ish o‘rni osmondan tushmaydi, qolaversa, tadbirkorman, deya har kuni hokimiyatning eshigidan kelmaydiganlarning hammasi ham ish o‘rni yaratishga qodir emas. Ammo shunday tadbirkorlar borki, ularga ko‘rsatilgan ozgina yordam shu hudud aholisining ishli bo‘lishiga zamin yaratishi mumkin. Nurobodlik ishga chanqoq shunday tadbirkor ayollarga yordam orqali “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar ham manfaat ko‘radi, albatta.

Gulruh MO‘MINOVA,
“Zarafshon” muxbiri.

Kitob taqdimoti

Kitobga oshnolik o‘zlikni anglatadi

Viloyat axborot-kutubxona markazida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi hamda “Zarafshon” va “Samarkandskiy vestnik” gazetalari tahririyati hamkorligida “Zarafshon” gazetasi kutubxonasidan” turkumida chop etilgan “Mulohaza uchun”, “Gazetada aks etgan tarix” hamda “Mungli ko‘zlar” kitoblari taqdimoti o‘tkazildi.



Mazkur tadbir mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “INFOLIB O‘ZBEKISTON-2024” XIII Milliy axborot-kutubxona haftaligi hamda “Yosh kutubxonachilar” to‘rtinchi respublika forumi doirasida tashkil etildi.

Tadbirda so‘z olganlar dastlab faxriy jurnalist, “Do‘stlik” ordeni sohibi Tog‘aymurod Shomurodovning hikoyalar, mulohazalar, tarjimalari jamlangan “Mungli ko‘zlar” kitobi yuzasidan fikr bildirdi. Kitobda uni o‘qigan har qanday kishini mulohazaga chorlovchi ko‘plab fikrlar bayon etilgani, ibrat sifatida ko‘rsatib o‘tilgan voqealar hayotiy ekanligi ta’kidlandi.

- Uyimizdagi mo‘jazgina kutubxona, dadam bizga qiziqarli voqealar aytib bergani va kitob o‘qishga undagani bizni kitobga oshno qilgan, - deydi muallifning qizi Guliston Shomurodova. – Hayotiy hikoyalarni shunday ustalik bilan yozadiki, biz o‘zimiz ham hayratlanamiz. Dadamning yumorga boyligi barchamizni o‘sha davraga birlashtirib turadi.

“Zarafshon” gazetasi mas’ul kotibi Abdug‘ofur Sherxolov, tilshunos olim Tolib Jo‘rayev “Mulohaza uchun” va “Gazetada aks etgan tarix” kitoblarining yaratilishi haqida so‘z yuritdi.

“Mulohaza uchun” risolasi muxbirlikka havas qilgan hamda bo‘lajak jurnalistlar uchun zarur qo‘llanma ekanligi ta’kidlandi. “Gazetada aks etgan tarix” risolasi ham o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi. Risolada gazeta tarix va jamiyat ko‘zgusi ekanligi, shu bilan birga, voqelikni aniq dalillar asosida, tahliliy yondashuvlar bilan yorqin bo‘yoqlarda aks ettiradigan ishonchli manba ekani qayd etildi.

Uchrashuv yakunida yangi kitoblar tadbir ishtirokchilariga tarqatildi.

Husan ELTOYEV.



REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

MINNATDORMIZ!

Inson hayoti, salomatligi hamma narsadan aziz. O‘z kasbning fidoyi insonlari bor ekan, xalqimiz sog‘-salomatdir. Nafaqadaman, yoshim yetmish yettida, ikkinchi guruh nogironiman. Yaqinda Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi 4-terapiya bo‘limida davolanib chiqdim. Qizim Mehri ham shu shifoxonada davolanib, shifo topdi. Hozirda ahvolimiz ancha yaxshi.

Shifoxona sharoitlari havas qilgudek. Shifokorlar va hamshiralar bilimi, tajribasi hamda shirin so‘zi bilan bemorlar dardiga darmon bo‘lishmoqda. Bizlardan o‘z maslahati va amaliy yordamini ayamagan 4-terapiya bo‘limi mudiri Nodirbek Rizaev, shifoxona ma’muriyati, hamshiralar va boshqa xodimlardan juda minnatdormiz. Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el sog‘ligi yo‘lidagi ishlaringizga ulkan muvafaqqiyat tilaymiz.

Shamsiya SHARIPOVA,
Samarqand shahri.

* * *

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Nasriddinov Abdukarim Saidovichga (2023-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Melyadjiyeva Natasha Antonovnaga (2022-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Djalalov Mamadali Akbarovichga (2010-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Yaqubova Gulsumga (2023-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Turdiyev Istam Gulyamovichga (2005-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Raximov Musurman Kushvakovichga (2014-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Urolova Iroda Jonizakovnaga (2023-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 132-uy, 2-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Raximov Siroj Salimovichga (2018-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko‘chasi, 5-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Ergasheva Tursunga (2023-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Rafiyeva Gulbaxor Supxonovnaga (2021-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Sotuvchi “PERFECT CRISTAL WATER” MCHJ direktori Arslanov Bahodir Yuldoshevich va sotib oluvchi Muxtorov Azamat Marufovichlar o‘rtasida Samarqand shahri “Bog‘ichinor” MFY, Gagarin ko‘chasi, 81-“B” uyda joylashgan “PERFECT CRISTAL WATER” MCHJga tegishli bo‘lgan savdo do‘koni va yerto‘la bino-inshooti tarkibidagi savdo do‘koni binosining 1-qavatida joylashgan 6-7-8-xonalarini umumiy maydoni 44.11 kv.m.dan iborat bo‘lgan ko‘chmas mulk binosi uchun “Sagdiana real servis” MCHJ tizimida 2024-yil 9-martda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan tashkillashtirilgan savdoning 12-sonli bayonnomasi hamda ushbu bayonnoma asosida 2024-yil 9-martda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi va topshirish qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Nurobod tumanidagi “NUROBOD OLTIN SOY DALASI” fermer xo‘jaligining (STIR: 303869158) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Mutaxassis fikri

Muzey ashyolarini raqamlashtirish xorijda qanday, bizda-chi?

Jarayonning qulayligi, kamchiliklari va yechimi xususida

Muzeylar mamlakatning madaniy merosini saqlaydi. Raqamlashtirish ushbu merosni keng jamoatchilikka yanada qulayroq yetkazadi va muzey xodimlarining ishini osonlashtiradi. Dunyoda muzeylarni raqamlashtirishdan asosiy maqsad – ko'proq tomoshabinlarni jalb etish, tadqiqotchilar uchun qulayliklar yaratish hamda eksponatlarni o'z holicha saqlab qolish. Yaqinda Buyuk Britaniyadagi uchta katta muzey faoliyati bilan tanishib, bunga amin bo'ldim. Quyida mazkur muzeylarda raqamlashtirish jarayoni va mamlakatimiz muzeylarida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalamiz.



BRITANIYA MUZEYIDA EKSPONATLAR O'G'IRLAB KETILMASLIGI UCHUN RAQAMLASHTIRILMOQDA

Britaniya muzeyi dunyoda tashkil etilgan birinchi muzey bo'lib, 1759-yildan faoliyat yuritib keladi. Eksponatlarining noyobligi jihatidan dunyoda yetakchi.

Britaniya muzeyi xavfsizlikni yaxshilash, tadqiqotchilar va jamoatchilikka axborot olishni osonlashtirish va buyumlarni vataniga qaytarish chaqiruvlarining oldini olish maqsadida butun kolleksiyasini raqamlashtirishni maqsad qilgan. Bu jarayon muzeyda 2021-yilda yuz bergan o'g'irlikdan keyin jadallashgan. O'shanda muzey xodimi tomonidan 2 mingta ashyo o'g'irlangan va ularning 350 donasi muzeyga qaytarilgan.

Birlashgan qirollikning barcha muzeylarida eksponatlarning raqamlashtirilishi markazlashtirilmasdan, muzeylarning o'zi tomonidan mustaqil hal etiladi. Britaniya muzeyi kolleksiyalarini raqamlashtirish muzey vakillari tomonidan taxminan 10 million funt sterlingga (12,2 million AQSh dollari) deb baholangan. Muzey bu loyihani amalga oshirish uchun xususiy xayr-ehsonlar va investitsiyalarni jalb qilishni rejalashtirgan.

Britaniya muzeyida yuz bergan o'g'irliklar munosabati bilan YUNESKO o'g'irlangan madaniy obyektlarning virtual muzeyini yaratish rejasini e'lon qilgan va bu loyiha uchun 2,5 million dollar sarflashni rejalashtirgan. Moliyalashtirishning birinchi bosqichi Saudiya Arabistoni tomonidan taqdim etilgan. Ushbu raqamli muzeyni yaratish rejalari birinchi marta 2022-yil sentabr oyida e'lon qilingan edi. Ayni paytda ishlar davom etmoqda va 2025-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

VIKTORIYA VA ALBERT MUZEYIDA RAQAMLASHTIRISH KOLLEKSIYALARNI TADQIQ QILISH BILAN TENG

Viktoriya va Albert muzeyi 1852-yilda qirolicha Viktoriya va shahzoda Albert sharafiga dastlab amaliy san'at ashyolari ko'rgazmasi sifatida tashkil etilgan. Uning to'plami qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo va Shimoliy Afrika xalqlari madaniyatiga oid 5000 yillik tarixni o'z ichiga olgan amaliy san'at namunalarini qamrab oladi.

Muzey dastlab 2009-yilda o'z kolleksiyalarining onlayn katalogini yaratgan. 2021-yilda yangi raqamli platformani ishga tushirgan. Natijada o'tgan davrda Yevropadagi eng qadimgi va dunyodagi eng yirik dekorativ-amaliy san'at muzeyi kolleksiyasidan 1,2 milliondan ortiq eksponatlar raqamlashtirilgan.

Muzeyning elektron ma'lumotlar bazasidan eksponatlarning texnik ma'lumotlari, zamonaviy va arxiv fotosuratlari, shuningdek, muzeyning o'z video yozuvlari va sharhlarini yuklab olish mumkin. Ularning bir qismi bepul, bir qismi pullik tarzda taqdim etiladi. Muzey olimlari eksponatlarni raqamlashtirish jarayonini "kolleksiyalarni tadqiq qilish" (Explore The Collections) deb nomlashgan.

BRITANIYA TABIIY TARIX MUZEYI GLOBAL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

Ushbu muzey 1963-yilda Britaniya muzeyidan ajralib chiqqan va 1992-yilgacha "Britaniya muzeyi (tabiat)" deb nomlangan. Muzey olimlarining fikriga ko'ra, muzey kolleksiyalarini raqamlashtirish global iqtisodiyotni rag'batlantirishga yordam beradi. Buyuk Britaniyaning tabiiy tarix muzeyi kolleksiyalarida yuzlab yillar davomida to'plangan 130 milliondan ortiq buyumlar mavjud. Ushbu kolleksiyalar yerning iqlimi va biologik xilma-xilligi turli davrlarda qanday bo'lganligi haqida qimmatli ma'lumot manbaidir.

Muzey kolleksiyalarining raqamlashtirilishi olim va tadqiqotchilar uchun yengillik beradi. Biroq hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning tabiiy tarix muzeyi kolleksiyalarining atigi 6 foizi global bioxilma-xillik axborot jamg'armasi (GBIF) ma'lumotlar bazasiga kiritilgan. Bu tadqiqotchilar imkoniyatini cheklaydi, ularni muzeyga kelib ishlashga majbur qiladi. Eksponatlarning barchasi raqamlashtirilsa, ularni har kim, istalgan joyda va istalgan vaqtda ko'rishi va o'rganishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, faqat britaniyalik tadqiqotchilarning o'zi hozirda mamlakat muzeylarida mavjud bo'lgan raqamli namunalardan foydalangan holda vaqt va sayohat xarajatlaridan 1,4 million funt sterlingdan ko'proq tejashgan.

Muzeyda tadqiqotchilarga qulay bo'lishini ta'minlash uchun kolleksiyalarni ommaviy raqamlashtirish 10 yil oldin boshlangan. Muzey raqamlashtirishda eksponat haqidagi ilmiy ma'lumotlarni va fotosuratlarni ommaviy ma'lumotlar portaliga yuklaydi. Hozirgacha tabiiy tarix muzeyida 5,6 milliondan ortiq eksponatlar raqamlashtirilgan, bu butun kolleksiyaning taxminan 7 foizini tashkil qiladi.

O'ZBEKISTON MUZEYLARIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONI QANDAY KETYAPTI?

Yuqorida dunyodagi uchta mashhur muzeyda raqamlashtirish haqida to'xtaldik. Xo'sh, yurtimiz muzeylarida bu jarayon qanday olib borilyapti?

Mamlakatimizda muzey ashyolarini raqamlashtirish 2011-yilda markazlashgan holda boshlangan. Dastlab madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan muzey ashyolari va jamlanmalarining "SKM-MUZEY" elektron baza dasturi ishga tushirildi. Biroq ushbu dasturning dasturiy ta'minotida kamchiliklar bo'lganligi bois kutilgan natijani bermadi. Xususan, dastur mahalliy tarmoq uchun mo'ljallangan bo'lib, uni global tarmoqqa ulashning texnik imkoniyatlari ishlab chiqilmadi. Shuningdek, dasturga kiritilgan muzey ashyolari haqidagi ma'lumotlarni izlash tizimi ishlamadi. Mazkur kamchiliklar bois "SKM-MUZEY" elektron baza dasturi 2015-yilga kelib muomaladan chiqarildi. O'zbekiston muzeylari tomonidan bir necha ming ashyolar haqidagi ma'lumotlar "SKM-MUZEY" elektron bazasiga kiritilgan edi. Jumladan, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi xodimlari tomonidan ham 29 mingta ashyo " SKM-MUZEY" elektron bazasiga kiritilgandi. Biroq izlash tizimi ishlamaganligi tufayli kiritilgan ashyolar haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolmadi.

Bu borada keyingi yillarda davlat tomonidan muzey ashyolari va kolleksiyalarini raqamlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan goskatalog.uz platformasi ishga tushirildi. Mazkur elektron bazaga oksgoskatalog.uz sayti orqali ashyolar kiritiladi. Kiritilgan ashyolarni goskatalog.uz sayti orqali kuzatish, izlab topish mumkin.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 7-ilovasida "2021-2023-yillarda davlat muzeylaridagi muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini elektron identifikatsiya qilish maqsadli ko'rsatkichlari" keltirilgan. Unga ko'ra, 2023-yilgacha O'zbekistondagi barcha muzeylarda eksponatlar raqamlashtirilishi va elektron bazaga kiritish tugallanishi lozim edi. Biroq 2021, 2022, 2023-yillar davomida muzeylar Madaniyat vazirligidan Turizm va sport vazirligi tizimiga o'tkazilishi, keyin esa alohida Madaniy meros agentligi tashkil etilib, uning tasarrufiga o'tishi munosabati bilan dasturning serverini ko'chirish ishlari olib borildi. Ushbu jarayonda dastur ishlamadi. Ayni paytda ham dasturning ishlashida uzilishlar kuzatilmoqda.

Hozirda respublika muzeylari xodimlari tomonidan eksponatlar haqidagi asosiy ma'lumotlar va ularning fotosuratlari bazaga kiritilmoqda. Biroq ba'zi hollarda ashyolar haqidagi ma'lumotlar xato kiritilishi hollari kuzatilmoqda. Bu ayrim muzeylarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, elektron bazaga sifatsiz fotosuratlar yuklanmoqda. Buning sababi O'zbekiston muzeylarida ashyolarning fotosurati muzey ilmiy xodimlari tomonidan olinadi. Muzeylarda fotosuratchi shtati mavjud emas. Aksariyat hollarda ashyolarning fotosurati fotoapparatlar yetishmasligi sababli xodimlarning qo'l telefonida olinmoqda. Buni goskatalog.uz elektron bazasiga dunyoning istagan joyidan turib, xohlagan kishi kirib ko'rishi mumkin. Keng omma uchun mo'ljallangan barcha saytlarda muharrir bo'lgani kabi mazkur bazadagi ma'lumotlarning to'g'riligi va yuklanayotgan fotosuratlarning sifati ham nazorat qilinishi kerak.

Muzey ashyolarini raqamlashtirishda davlat tomonidan rejalar ishlab chiqilishi, muddatlar belgilanishi va nazorat qilinishi tabiiy hol. Ammo muzey ashyolarini raqamlashtirish har bir muzey tomonidan mustaqil tarzda, alohida loyiha sifatida olib borilishi maqsadga muvofiq. Hozirda goskatalog.uz elektron bazasiga kirib, aytaylik, Xorazm amaliy san'atiga oid ashyolar haqidagi ma'lumotlarni olmoqchi bo'lsangiz, sohaga oid barcha ashyolarni qarab chiqishingizga to'g'ri keladi va ashyolar haqidagi ma'lumotlar juda qisqa. Bu esa kelajakda muzey xodimlarining eksponat haqidagi ma'lumotlarni qayta tahrir qilishga majbur bo'lishini bildiradi. Ashyolarning fotosuratlari haqida ham shunday deyish mumkin.

Maxmudxon YUNUSOV, muzeyshunos, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Mulohaza

Nabiram bilan dars qildim...

Yoxud "Alifbo" haqida

Oila desam, biri tanu
Biri jondek ko'rinar.
Mo'jazgina mustahkam
Bir Vatandek ko'rinar.
Oila - otam, oila - onam,
Oila - ukam ko'zlari.
Oila – singlim, oila – bobom,
Buvijonim so'zlari.
Men ulardan o'zimni
Tasavvur etmam ayro.
Oila - kichik Vatanim,
Men jilg'aman, u – daryo.
Bu - birinchi sinfga borib,
4 kun (9-sentabr) darsga qatnashgan o'quvchi bolaga yodlash uchun berilgan she'r matni. Muallif – Zahro Nazarova.



Jurnalist bo'lganim uchun uni quvvai hofizam darajasida tahlil qilishga urindim.

Oila desam, biri tanu
Biri jondek ko'rinar...

Avvalo, "oila desam" iborasidan so'ng vergul yo'q.

Bu yerda muallif-shoir "biri tan" va " biri jon" deganda nimani nazarda tutyapti? Tan va jonning nimaligini, bir-biriga qanday bog'liqligini, inson hayotidagi ahamiyatini 4 kun maktabga borgan bolakay tushunadimi?

Oila - otam, oila - onam,
Oila - ukam ko'zlari.
Oila – singlim, oila – bobom,
Buvijonim so'zlari.

"Ko'zlari" va "so'zlari" qofiya uchun keltirilganga o'xshadi. Oxirgi satrda bitta bo'g'in kam.

Men ulardan o'zimni
Tasavvur etmam ayro.

To'g'ri. She'riyatda matn oddiy so'zlashuv tiliga nisbatan murakkabroq: ega-kesim va boshqa gap bo'laklari o'rni almashib kelishi mumkin. Zukko va nisbatan tajribali o'quvchi gapning mag'zini topib oladi. Lekin buni 4 kunlik o'quvchi hazm qila olarmikan? Ayniqsa, "tasavvur etmam ayro" degan misrani...

Oila – kichik Vatanim,
Men jilg'aman, u – daryo.

Kamina "ayro" degan so'z she'rda nega ishlatilganini tushunmay turgandim, keyin angladim - "daryo" so'ziga qofiya uchun ekan. Yoki aksincha.

Nabiram "jilg'a" nimaligini tushunmadi, kichik ariqcha, dedim. Daryoni tushuntirganimdan keyin ozroq tasavvur hosil qildi. Ikkalasining bog'liqligini, ayniqsa, oilaga nima daxli borligini baribir hazm qilolmadi.

Ehtimol, geografiya fani o'qitilgach, tushunib olar. Ushbu she'rni baholashdan yiroqman, u kimningdir ijod mahsuli. Lekin "Alifbo"ning birinchi sahifalariga joylashtirish to'g'rimi? 4 kunlik o'quvchiga og'irlik qilmaydimi?

Ushbu xulosalar holatni birovdan eshitib emas, nabiram bilan birga dars qilish jarayonida yuzaga keldi.

Boshlang'ich sinfda Ona va Vatan tushunchasini oddiy, sodda, mehr-muhabbat bilan tushuntiradigan she'rlarni yodlaganmiz va haligacha mazza qilib aytamiz:

Mening ikki onam bor,
Ikkisi ham mehribon...

Menimcha, qolganini yuzlab, minglab odamlar ayta oladi. Chunki uning so'zlari tushunarli, ma'nisi ravshan.

Sadriddin NABIYEV.

Yosh bokschilar xotira turnirida bellashdi

Samarqand shahridagi 1-sport maktabida 2007-2008-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida sport ustasi va xalqaro toifadagi hakam Aziz Abduhamidov xotirasiga bag'ishlangan boks bo'yicha ochiq turnir bo'lib o'tdi.



Musobaqaning ochilish marosimida viloyatimiz va respublikadan kelgan faxriy bokschilar, trener va sportchilar ishtirok etdi.

Marhum bokschining shogirdlari hamda viloyatdagi boks faxriylari hamkorligida tashkil etilgan xotira turnirida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Sirdaryo, Navoiy, Namangan va Samarqand viloyatlaridan 150 nafardan ziyod sportchi 15 vazn toifasida bellashdi.

- Yoshlarni sportga jalb qilish, shahrimizda boksni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish maqsadida bunday turnirlarni ko'proq o'tkazishimiz kerak, - deydi musobaqa tashkilotchilaridan biri, faxriy bokschi O'ktam Saidmurodov. – Mazkur turnirning viloyatda boksning rivojiga ulkan hissa qo'shgan, Samarqand farzandi Aziz Abduhamidov xotirasiga bag'ishlab tashkil etilishining sababi bor. Aziz Abduhamidov 1962-yilda O'zbekiston jismoniy tarbiya institutini tamomlab, Samarqanddagi «Dinamo» sport jamoasida boks murabbiyi, keyinchalik boks maktabi direktori vazifasida ishlagan.

Boks bo'yicha AIBA xalqaro toifadagi hakamlikni qo'lga kiritgan. 1974-yilda ilk marta havaskorlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida sobiq ittifoqdan to'rt nafar hakam borgan bo'lsa, shulardan biri Aziz Abduhamidov edi. Shu kabi bir nechta nufuzli xalqaro turnirlarni boshqargan, hakamlik qilgan, viloyat, respublika terma jamoalariga sportchilar yetkazib bergan. Aytish joizki, Samarqand boks maktabidan aka-uka Aleksandr va Nikolay Anfimovlar, Artaash Saakov, Murtazo Junaidov, Oleg Karjamanov, Marat Gabriyelov kabi bir necha Yevropa va ittifoq chempionlari, xalqaro turnirlar g'oliblari yetishib chiqqan.

Musobaqa uch kun davom etdi va g'oliblar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

- Xotira turnirlarining tashkil etilishi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish, kuchli va tajribali sportchilarni saralashga xizmat qiladi, - deydi Kattaqo'rg'on shahar sport maktabi murabbiyi Aziz Raimov. – Jumladan, joriy yilning dekabr oyida yoshlar o'rtasida O'zbekiston championati o'tkaziladi. Ushbu turnir mamlakat championati oldidan iqtidorli sportchilarni aniqlash va terma jamoaga yuqori texnikali bokschilarni yetkazib berish imkonini yaratadi.

F.FAXRIDDINOV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 664 nusxada chop etildi. Buyurtma 562. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda